



UDK: 355.13:17.022.1

*Behzod RAJABOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi*  
*E-mail: behzodbek1991658@gmail.com*

*PhD M.Muminov taqrizi asosida*

## IDEOLOGICAL AND PHILOSOPHICAL FACTORS THAT DETERMINE THE MANIFESTATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES IN MILITARY PERSONNEL

Annotation

In this article, provides a scientific analysis of the ideological and philosophical factors influencing the development and manifestation of spiritual and moral qualities in military personnel. The study examines concepts such as national identity, patriotism, moral consciousness, military duty, social responsibility, and the harmony of national and pan-national values as important determinants of the spiritual development of military personnel. The study's findings substantiate the role of ideological and educational systems in ensuring the spiritual maturity of military personnel.

**Keywords:** Spiritual and moral qualities, military personnel, spirituality, morality, virtue, personal excellence, patriotism, national idea, military duty, moral consciousness, values, education.

## ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ПРОЯВЛЕНИЕ ДУХОВНЫХ И ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ идеологических и философских факторов, влияющих на формирование и проявление духовно-нравственных качеств у военнослужащих. В ходе исследования в качестве важных определяющих факторов формирования духовного мира военнослужащих рассматриваются такие понятия, как национальное самосознание, патриотизм, нравственное сознание, воинская обязанность, социальная ответственность и гармония национальных и общенациональных ценностей. Результаты исследования обосновывают роль идеологической и воспитательной системы в обеспечении духовной зрелости военнослужащих.

**Ключевые слова:** Духовные и моральные качества, военнослужащий, духовность, мораль, добродетель, личное совершенство, патриотизм, национальная идея, военный долг, нравственное сознание, ценности, воспитание.

## HARBIY XIZMATCHILARDA MA'NAVYIY-AXLOQIY FAZILATLARNI NAMOYON BO'LISHINI BELGILAYDIGAN G'OYAVIY-FALSAFIY OMILLAR

Аннотация

Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi g'oyaviy-falsafiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida milliy g'oya, vatanparvarlik, axloqiy ong, harbiy burch, ijtimoiy mas'uliyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligi kabi omillar harbiy xizmatchilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda muhim determinant sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalarida harbiy xizmatchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda g'oyaviy-tarbiyaviy tizimning o'rni asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviy-axloqiy fazilatlar, harbiy xizmatchi, ma'naviyat, axloq, fazilat, shaxsiy kamolot, vatanparvarlik, milliy g'oya, harbiy burch, axloqiy ong, qadriyatlar, tarbiya.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv jarayonlari, geosiyosiy raqobatning kuchayishi hamda axborot makonidagi turli g'oyaviy tahdidlar sharoitida harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish davlat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchi nafaqat professional harbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, balki yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, fidoyilik, mas'uliyat va axloqiy barqarorlik kabi sifatlarini ham o'zida mujassam etishi zarur. Bu borada humatli Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni vatan himoyachilariga yo'llagan tabrigida "Harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi va jismoniy tayyorgarligini muntazam oshirib borish, ularning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Chunki har qanday kurashning taqdirini shaxsiy tarkibning bilim va malakasi, iroda va qat'iyati, o'ziga bo'lgan ishonchi, mardona fazilatlarini hal qiladi" deb ta'kidlagani bu yo'nalish naqadar muhim ekanligini anglatadi.

Harbiy xizmat faoliyati o'ziga xos ijtimoiy muhit va qat'iy intizom tizimi bilan ajralib turadi. Bu jarayonda harbiy xizmatchining shaxsiy dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari hamda axloqiy tamoyillari uning xizmat faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli harbiy xizmatchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi g'oyaviy-falsafiy omillarni chuqur o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ma'naviy-axloqiy fazilatlarining harbiy xizmatchilarda namoyon bo'lishi - shaxsiy xususiyatlar, iroda va ruhiy tayyorgarlikka bog'liq bo'lgani kabi, ijtimoiy muhit, davlat siyosati, jamoa ta'siri, madaniyat, oila, ta'lim, ommaviy axborot, an'ana va jamoatchilikning keng integratsiyasi bilan ham belgilanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan inson shaxsi va axloqiy kamolot - bu faqat individual ichki jarayon emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar tizimi, institutlar, madaniyat va ijtimoiy-kultur muhitda

shakllanadigan ko'p qirrali jarayondir [1]. Harbiy xizmatchidagi axloqiy fazilatlar ham aynan mana shu ijtimoiy-falsafiy omillar ta'sirida kuchli namoyon bo'ladi.

O'zbek olimlarining asarlarida va ishlarida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, shuningdek, ma'naviy xavfsizlik yosh harbiylarning g'oyaviy barqarorligi va mafkuraviy immunitetini ta'minlovchi falsafiy asos sifatida talqin qilinadi. Bu borada o'zbek olimasi N.Shermuxeimova O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda buzg'unchi g'oyalar bilan kurashishning zarurligini, shu bilan birga, ular tadqiqotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni vatanparvarlik, sadoqat, mas'uliyat va kasbiy burch kabi fazilatlarining shakllanish mexanizmlarini ochib beruvchi ijtimoiy-falsafiy va amaliy model sifatida asoslagan [2].

Jamoa va liderlik muhiti

Harbiy jamoa ta'siri – xizmatchi ongida ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Harbiy xizmatda har bir xizmatchi jamoa qoidalar, norma va qadriyatlari, yetakchi shaxslar namunasi ta'sirida rivojlanadi.

Yaxshi jamoada ijobiy fazilatlar (burch, jamoaviylik, sadoqat, intizom) tez namoyon bo'ladi, jamoadagi "qadriyatlar tashuvchisi" bo'lgan lider shaxs barcha uchun ruhiy va axloqiy o'rnatqiladi aylanadi [3]. Misol tariqasida biror bir bo'linmaning komandirining shaxsiy namunasi (masalan, qiyin vaziyatda jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishi) butun harbiy jamoada axloqiy muhitni o'zgartiradi.

O'zbekiston armiyasida "Liderlik klubi", "Fidoyilar haftaligi", "Qahramonlar forumi"da tajribali, burchga sodiq xizmatchilar, yetakchilarning amaliy hayoti, pozitsiyasi yoshlar uchun ifodali qimmatga aylanadi.

Davlat siyosati va qonunchilik rolining ustuvorligi

Davlat siyosati va qonunchilik - armiyada ma'naviy muhit va axloqiy fazilatlar rivoji uchun strategik asos yaratadi.

O'zbekistonda har yili "Vatanparvarlik oyligi", "Ma'naviyat va ma'rifat haftaligi", "Harbiy xizmatchilar burchini ado etish madaniyati" singari umummilliy kampaniyalar o'tkaziladi.

Qurolli Kuchlarda milliy g'oya, jamoa burchi, vatanga sadoqat, sadoqatli xizmat mezonlari qonunchilik va rasmiy dasturlarda asosiy talab sifatida belgilangan [4].

Misol tariqasida Prezident farmoni asosida harbiy xizmatchilar uchun "Ma'naviy-ma'rifiy kompleks dasturlari" qabul qilingan, armiyada ma'naviy-axloqiy muhitni saqlash uchun davlat va jamoatchilik nazorati yo'lga qo'yilgan.

Axborot muhiti, ommaviy madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri

Axborot muhiti va zamonaviy texnologiyalar - yoshlar ongiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan zamonaviy ijtimoiy omillardandir. Bunga yaqqol misol tariqasida blogger Bobur Mansurov jamoasi tomonidan zamonaviy armiya to'g'risida olgan kontenti deyarli bir yil ichida o'n sakkiz million kuzatuvchi tomonidan ko'rilgani va ulardan bir yuz yigirma mingtaga yaqin kuzatuvchi kontentni ijobiy baholaganini ko'rsatish mumkin [5]. Shuning o'zi ijtimoiy tarmoqlar qisqa vaqtda yoshlar ongiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan eng ma'qul yo'llardan biri ekanligining isboti hisoblanadi.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar, axborot platformalari orqali harbiy xizmatchilar yoshlari turli g'oyalar, qadriyatlar, axloqiy namuna va an'analarga duch keladi. Ba'zan axborot urushi va mafkuraviy tahdidlar orqali yoshlarning ma'naviy immunitetiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois armiyada "axborot gigienasi", "feyk axborotga qarshi immunitet", "milliy qadriyatlar targ'iboti"ga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Misol tariqasida axborot hujumlariga qarshi maxsus treninglar, onlayn forumlar, axborot xavfsizligi seminarlari tashkil etiladi, yoshlar "aqli tarmoq" qoidalariga o'rgatiladi.

Harbiy xizmatchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar rivojlanishida milliy madaniyat, oila va ta'lim muassasalari roli Oilaviy muhit, milliy madaniyat va ta'lim muassasalari - har bir xizmatchi shaxsida axloqiy fazilatlar poydevoriga aylanadi.

Oilada vatanparvarlik, odob, kattaga hurmat, burchga sodiqlik, mehr-oqibat, mas'uliyat - milliy tarbiya asosi sifatida shakllanadi [6].

Ta'lim muassasalari va harbiy litseylarda "Fidoyilik va burch", "Qahramonlik saboqlari", "Vatan va jamoa uchun xizmat" mavzusida muntazam forum va treninglar o'tkaziladi.

Milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida yoshlarda "burchni bilish", "jamoa uchun yashash", "shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish" tarbiyalanadi.

Jamoatchilik institutlari va armiya jamoaviy muhitining ta'siri

Jamoatchilik institutlari - mahalla, faxriylar kengashi, yoshlar ittifoqi, ta'lim va sport jamoalari, din va ma'naviyat markazlari - armiyada ma'naviy muhit va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda integratsiyachi platforma vazifasini bajaradi.

Faxriylar, olimlar va jamoat faollari xizmatchilarga ma'naviy-ma'rifiy saboq, milliy qadriyatlar va fidoyilik namunalari muntazam yetkazadi.

Milliy va jamoa an'analari armiyaning ichki muhitini mustahkamlaydi, har bir xizmatchida shaxsiy va jamoaviy burchni kuchaytiradi.

Xalqaro tajriba: Germaniya, Turkiya, Rossiya

Germaniyada: Armiyada qahramonlik haftaligi, milliy qadriyatlar forumlari, jamoaviy burch va shaxsiy fazilatlar mavzusida muntazam mashg'ulotlar va ijtimoiy tadbirlar tashkil etiladi [7].

Turkiyada: "Vatan burchiga sodiqlik" va "Milliy g'oyani targ'ib qilish" davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir [10].

Rossiyada: Patriotik klublar, faxriylar kengashi, axloqiy-psixologik treninglar jamoa burchi va shaxsiy mas'uliyatni oshirishda keng foydalaniladi.

**Tahlil va natijalar.**

Mahalliy va milliy an'analarning armiyaviy muhitga ta'siri

Milliy an'ana va qadriyatlar, urf-odatlar, diniy va ma'naviy meros harbiy muhitdagi axloqiy fazilatlarining shakllanishida asosiy o'rin tutadi. O'zbekistonda "kattaga hurmat", "fidoyilik", "birlik va hamjihatlik", "vatanga sadoqat" kabi milliy qadriyatlar bolalikdan oila, mahalla, maktab, litsey va oliygo'hlarda singdiriladi. Armiyada bu an'analar – yosh xizmatchilarga milliy g'urur, burch, jamoaviylik va sadoqat fazilatlarini o'zlashtirishda hal qiluvchi psixologik va ma'naviy poydevorga aylanadi.

Islom va ma'naviy qadriyatlar rolining kengayishi

Islom dini va undagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ham armiyada fazilatlar shakllanishida katta ta'sirga ega. Islomdagi burch, sadoqat, vatanga muhabbat, qahramonlik, vijdon va adolat prinsiplari armiya uchun ham umuminsoniy, ham milliy qadriyat sifatida amal qiladi [8].

Harbiy muhitda jamoaviy va shaxsiy burch uyg'unligi


Harbiy xizmatda xizmatchilar doimo shaxsiy va jamoaviy burchni uyg'unlashtirish zarurati oldida turadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, xizmatchilar jamoa, davlat va jamiyat burchiga sodiqlikda "individual manfaat" va "umumjamoa qadriyati" o'rtasida tanlov qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda shaxsiy burch va jamoaviylik uyg'unligi ma'naviy immunitetning asosiy indikator sifatida belgilanadi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari - yangi ijtimoiy omil

Bugungi armiyada axborot texnologiyalari va internet, ijtimoiy tarmoqlar har bir xizmatchining dunyoqarashi va axloqiy fazilatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, axborot urushi, mafkuraviy tahdidlar va yolg'on xabarlar sharoitida xizmatchilarda "axborot immuniteti", "milliy qadriyatlarni himoya qilish" qobiliyatini rivojlantirish zarur.

Mahalla va jamoatchilik instituti: barqaror ma'naviy muhit poydevori

Zamonaviy tadqiqotlar va monitoring natijalari



Harbiy litseylarning birida "O'zbekiston yoshlarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda qanday asosiy qiyinchiliklarmavjud" savoli asosida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari Germaniya va Turkiya tadqiqotlarida axloqiy fazilatlar namoyon bo'lishida davlat siyosati, axborot muhiti va jamoatchilik institutlarining integratsiyasi eng samarali ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan[9].

Tadqiqot natijalari:

2023 yilda Toshkent, Buxoro va Andijonda o'tkazilgan monitoringda axloqiy dilemma treninglarida qatnashgan xizmatchilarning 80%ida jamoaviy burch, shaxsiy mas'uliyat va vijdon fazilati indeksi 30-40%ga oshgani qayd etilgan.

Germaniya va Turkiyadagi tadqiqotlar ham "jamoaviy tadbirlar" va "simulyatsiya mashg'ulotlari" xizmatchilar fazilatlarini kuchaytirishiga asos bo'lgan.

**Xulosa va takliflar.**

Harbiy xizmatda ijtimoiy-axloqiy muhitni barqarorlashtirishning innovatsion yo'nalishlari

Kompleks platforma va hamkorlik

Hozirgi kunda zamonaviy armiyani shakllantirishda ijtimoiy muhitni barqarorlashtirish uchun davlat, jamoatchilik, ta'lim muassasalari, oila va axborot texnologiyalari o'rtasida hamkorlik mexanizmi yo'lga qo'yilmoqda.

Milliy va xalqaro qiyosiy tahlillar

Milliy monitoring:

O'zbekistonda harbiy xizmatchilar fazilati rivojida jamoa, oila, davlat siyosati, axborot muhiti va jamoatchilik instituti ta'siri bo'yicha o'rganilgan xolda, 78-85% holatda barqaror ijtimoiy muhit, ilg'or liderlar va axloqiy forumlar samarali natija bergani qayd etilgan.

Xalqaro qiyosiy natija:

#### ADABIYOTLAR

- Nazarov K.N. "Ma'naviy qadriyatlar va jamiyat", Toshkent: 2020, 48-52 b., 82-83 b.
- Islomov B. "Maqsad va qadriyatlar falsafasi", Toshkent: 2021, 82-85 b., 45-47 b.
- Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy xizmatchilarga murojaati", 2018.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023.
- O'zbekiston Respublikasining Mudofaa to'g'risidagi Qonuni. - Toshkent, 2018.
- O'zbekiston Respublikasining Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi Qonuni. - Toshkent, 2019.
- Шермухамедова Н.А. Формирование идеологического иммунитета – главный фактор борьбы с чуждыми идеологиями. – Ташкент: УФМЖ, 2003. – 25 с.
- To'rayev Sh. Yangi O'zbekiston: Ma'naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – T.: Afzalzoda, 2023; Milliy g'oya va mafkuralar tarixi. – Toshkent: Muharrir, 2022.
- Tokarev, S. "Patriotic Education in Russian Armed Forces", 2015, P 25-27.
- Demir, S. "Moral and Ethical Training in the Turkish Army", 2020, P 38-40.
- Abu Nasr Farobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2001, 32-35 b.
- <https://youtu.be/LoxjJBXsWY?si=bad2nSwyIFBUGNlz>
- Durkheim, E. "The Elementary Forms of Religious Life", 1912, P 18-22.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Mahalla, yoshlar ittifoqi, faxriylar kengashi, ma'naviyat markazlari xizmatchilarda milliy qadriyat, burch va jamoaviylik fazilatini doimiy targ'ib qiladi.

Axloqiy-psixologik treninglar va tadqiqotlar samarasi

Harbiy ta'lim muassasalarida muntazam tashkil etiladigan simulyatsiya-treninglar, debatlar, "dilemma mashg'ulotlari", fidoyilik haftaligi va amaliy loyihalar xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini oshirishda samarali ekanini tadqiqotlar isbotlagan.

Germaniya, Turkiya, Rossiya armiyalarida "jamo burchi va shaxsiy pozitsiya uyg'unligi", "axloqiy dilemma simulyatsiyasi", "fidoyilik haftaligi" uslublari fazilatlarini shakllantirishda eng samarali texnologiya ekanini tadqiqotlar tasdiqlagan.

Harbiy xizmatchilar shaxsida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish - ijtimoiy-falsafiy omillarning kompleks integratsiyasida amalga oshadi. Bunda:

jamo muhiti, yetakchi namunasi, davlat siyosati, milliy va oilaviy an'analar;

axborot texnologiyalari va jamoatchilik instituti;

axloqiy-psixologik treninglar, simulyatsiya va amaliy loyihalar uyg'un holda harakat qilsa, barqaror va yuqori ma'naviy fazilatli harbiy xizmatchi shaxsi shakllanadi.

Bu esa jamiyat va davlat xavfsizligining kafolati, yangi avlod ma'naviy kamoloti va milliy tiklanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishi ko'plab g'oyaviy-falsafiy omillar bilan belgilanadi. Ular orasida milliy g'oya, vatanparvarlik, harbiy burchga sadoqat, axloqiy ong, ijtimoiy muhit va qadriyatlar tizimi muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat, jamoatchilik, oila, armiyaviy jamoa, ta'lim va axborot platformalari o'rtasida kompleks hamkorlik va integratsiya harbiy xizmatchi shaxsida barqaror ma'naviy muhit, burch va javobgarlik, fidoyilik, jamoaviylik va vijdonni ta'minlashning eng muhim mezon bo'lib qoladi.

Mazkur omillarni tizimli ravishda rivojlantirish harbiy xizmatchilarning ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi.